



ZARAUTSOY QOYATOSH TASVIRLARINING O'RGANILISH TARIXI

Abdullayev Muhammadsiddiq Muhammadjon o'g'li

Namangan viloyati


Uychi tumani

18-sonli umum ta'lim maktabi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7233536>

Zarautsoy rasmlari - O'zbekiston hududidagi eng qadimgi qoyatosh rasmlari. Hisor tizmasining janubi-g'arbida. Ko'hitang tog'ining sharqiy yon bag'ridagi Zarautsoy darasidagi ungir va kamar toshlariga ishlangan ibtidoiy san'atnint nodir namunalari. Surxondaryo viloyatida, Termizdan 100– 110 km shimoli-g'arbda. 1912-yilda I. Fyodorov tomonidan topilgan. Arxeolog G. Parfyonov (1940—45), keyinchalik A. Roginskaya (rassom), A. Formozov, A. Kabirovlar tomonidan o'rganilgan. 200 dan ortiq rasmlar mezolit, neolit va keyingi davrlarga mansub. Rasmlar chizma tarzida kontur va soya uslubida qizil angob (oxra) bilan chizilgan. Z.r.da odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Hayvonlar (yovvoyi buqa, it, tulki, yovvoyi cho'chqa, burama shoxli echki, jayran, tog' echkisi, hasharot va b.), turli buyumlar (o'qyoy, nayza, o'roqsimon qurollar), niqoblangan odamlar va b. o'ziga xos tarzda hayotiy qilib ishlangan. Z.r. ibtidoiy san'atning noyob yodgorligi sifatida yodgorliklarni muhofaza qilish "qizil kitob"iga kiritilgan.

Markaziy Osiyo xududida madaniy qatlarga ega bo'lgan tosh asri yodgorliklaridan tashqari ajdodlarimizni turmush tarzini, madaniyatlarini, sanatini xatto urf- odatlarini umuman biz uchun juda ahamiyatli malumotlar beruvchi yana bir o'ziga xos bo'lgan yodgorliklarning bir turi tog'lardagi silliq qoyalarga aynan o'sha ajdodlarimizni o'zlari tomonidan chizib qoldirilgan rasmlardir. Bu xildagi rasmlar Markaziy Osiyo xududidagi respublikalarni tog'liq rayon-larida juda ko'plab uchraydi. Bu respublikalarning barcha-sida qoyatoshlardagi rasmlar bilan milliy kadrlardan mu-taxassis olimlar yo'q darajada bo'lgani sababli, rus olim-lari shug'ullanganlar. Ammo bu borada xam O'zbekiston res-publikasi akademik Ya. G'. G'ulomovni sayi xarakatlari tu-fayli o'zini milliy mutaxassislarini olib borgan salmoq-li ilmiy izlanishlari bilan ajralib turadi. O'zbekiston-ning tog'liq xududlarida mavjud bo'lgan qoyatosh suratlarini topish va tatqiq qilishda Ya. G'. G'ulomov, A. R, Muhammad-jonov, A. Kabirov, M. Xo'jamnazarovlarni xizmatlari kat-ta. Aynan shu soxada O'zbekistonimizda birinchi bo'lib, A. Kabirov «O'zbekis-tonda qoyatosh suratlarini o'rganish* mavzusida nomzod-lik dissertatsiyasini yoqladi. Shaxsan Ya. G'ulomovning tashabbuslari bilan 1969 yildan boshlab qoya toshlardagi rasmlarni o'rganish uchun maxsus gurux tashkil qilinib _bu gurux A. Kabirov boshchiligida aniq





rejalarda asosida O'zbekistonimizni tog'liq rayonlarida qidiruv va ilmiy izlanishlar olib bordi. Natijada O'zbekistonimiz xududida 50 dan ortiq qadimiy qoyatosh yodgorliklari kashf etildi va 1976 yilga kelib A. Kabirov tomonidan «Sarmishsoyning qoyatoshlaridagi rasmlar» nomli ilmiy monografiya chop etildi.

Qoyatosh rasmlari ishlanish texnikasiga ko'ra ikki turga bo'linib, biri bo'yoq bilan, ikkinchisi esa urib, o'yib ishqa-lash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlardir. Nafaqat bizni O'zbekistonimizda, balki Markaziy Osiyo xududidagi barcha xamdo'stlik mamlakatlarida xar xil rangdagi bo'yoq-oxra bilan ishlangan rasmlar ham kam bo'lib, urib, o'yib, ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlar, ya'ni pet-rogliflar juda ko'plab uchraydi. O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng ol'iyjanob namunalari mutaxassislari-mizni xulosalariga ko'ra Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Teraklisoy, Jarsoy, Tutlisoy, Krong'u ungursoy, Chadansoy, Sho'rbuloqsoy va boshqalarni kiritish mumkin. Bu joylardagi qoyatoshlarda O'zbekistonimizni qadimgi va hozirgi hayvonot olamini aks ettiruvchi ajoyib rasmlarni ko'rish mumkin. Ular ibtidoiy buqalar va sigirlar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon va gepartlar, tulki va bo'rilar, arxar va tog' echkilari, bug'u va elinlar, sayg'oq va jayronlar, jayra va toshbaqalar, baliq va ilonlar, echki va yirik shoxli qoramollar, tuya va eshak kabilardir. Eng muximi bu rasmlar orasida odamlarning uzun qilich, xanjar, o'qdon, dubulza, qopqon, arqon, qalqon, niqob kabi narsalarni tasvirlarini ham ko'plab uchrashidir. O'zbekiston xududidagi eng qadimgi rasm-lar buqa va echkilarni ov qilish manzara-sini aks ettirgan Zarautsoydagi rasmlar bo'lib, uni xronologiyasi eramidan avvalgi USh-1U ming yillikni o'z ichiga oladi. O'zbekistondagi petrogiliflar - qoyatosh rasmlari-ning eng qadimgisi eradan avvalgi II ming yillikka aloqador bo'lsa, boshqalari VI-III asrlarga oiddir.


Markaziy Osiyo respublikalari ichida Kirg'iziston jumhuriyatini xududida tog'li joylar ko'p bo'lgani uchun u yerlardan juda ko'plab qoyatosh rasmlari topilgan. Kirg'izistondagi qoyatosh rasmlarining eng noyob namunalari Sariyoz, Saymalitosh, Aravon, Ayirmochtog', Suratlisoy, Oxna va Talas daryosi xavzasidagi qator qoyatosh yodgorliklari bo'lib, ularda odam, tog' echkisi arxar, bug'u, bo'ri, tulki, to'ng'iz; uy hayvonlaridan it, ot, tuya, qoramol; qurollardan o'q-yoy, bumirang, nayza va boshqa narsalarning tasvirlari namoyon etilgan. Kirg'iziston tog'laridagi qoyalarda tog' takasi, bug'u, arxar va to'ng'izlarni ov qilish manzarasi juda ma'roqli ifodalangan. Kirg'izistondagi qoyatosh rasmlarining eng qadimiysi buqa xisoblanadi. Odamlar tasviri esa bronza davriga, boshqalari eradan avvalgi I ming yillik bilan belgilanadi.





Qoyatosh rasmlari Kozog'istonda xam keng tarqalgan bo'lib, ular haqidagi dastlabki malumotlar XVIII asrdan boshlab asosan xorijiy olimlarni asarlarida uchraydi. Kozog'iston xududida chor Rossiyasi va Qizil iperiya davrida xam asosan rus olimlari tomonidan o'rganilgan. Natijada ko'plab qoyatosh tasvirlari haqida maqolalar va ayrim monografik kitoblar chop etilgan. Tojikistonda xam qoyatoshlardagi rasmlar bilan asosan rus olimlari shug'ullanganlar. Tojikistonning Zarafshon tizmasidan Sharqiy Pomirgacha orqa Oloy tog'laridan Ba-dax-shongacha bo'lgan oraliqda 120 dan ortiq joyda qoyatosh rasmlari hisobga olingan. Bu qoyatosh rasmlari xam ishla-nish texnikasi jixatidan bo'yoqli va urib, o'yil ishlangan petrogiliflarga bo'linadi. Tasvirlarni aksariyati Pomir-ning g'arbiy-markaziy va janubiy qismida ko'proq uchrab, sharqiy- shimolida siyrakroq tarqalgan. Tojikistondagi qoyatosh tasvirlari orasida Kunuybel, Kurtaka, Chiziq shax-ta, Kozonko'l, Zarko'l, Yashilko'l, Bozordara, Xargush, Langar-kisht, Xuf, Komoch dara, Jaman, Darvoz, Robot, Van qala, Vznaut, Bittik-chashma, Namatgut xamda Zarafshon daryosi xavzasidan topilgan rasimli joylar mazmun va manzaralar-ning boyligi bilan kishi diqqatini o'ziga jalb qiladi. A. Kabirovni bayoniga ko'ra Tojikistonning qoyatoshlarida aso-san odam, ayiq, arxar, tog' echkisi, bug'u, o'q-yoy, bars, buqa shuningdek uy hayvonlaridan qoramol, echki, ot va itning tasvirlari ifoda etilgan. Qoyalarda yovvoyi hayvonlar ayiq, bug'u, tog' echkisi.arxarlarni ovlash bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos ajoyib manzaralar yuksak maxorat bilan ifodlan-gan. Tojikistondagi Bittik chashma va Kurtaka soyining shaxta g'oridagi bo'yoq bilan ishlangan odam, ayiq, to'ng'iz va boshqalarni rasmlari Zarautsoy suratlari bilan zamondosh bo'lib, mezolit, neolit davrining eradan avvalgi U111-1U ming yilliklariga mansubdir. Tojikistondagi qoyatosh ras-mlari petrogiliflarning eng qadimgisi bronza asriga oid bo'lib, xronologik jixatdan eramizgacha bo'lgan II ming yil-likni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich rasmdlar eramizgacha bo'lgan I ming yillikni o'z ichiga olib, ular sak- skif turi deb ataladi. Uchinchi gurux rasmlar eramizni I ming yilli-gini birinchi yarmiga va to'rtinchi guruxlari esa UP-XU asr-largi oiddir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Markaziy Osiyo xu-dudidagi qoyatoshlar aks ettirilgan rasmlar ajdodlarimiz yaratgan qadimiy madaniyatini yoritishda arxeologik ashyolar kabi moddiy ashyo sifatida katta rol' o'ynaydi. Chunki bu rasmlarning mazmuni va manzaralar manosidan kelib chiq-ib, ajdodlarimizni xo'jalik hayoti haqida hayvonlarni ov qilish, ularni qo'lga o'rgatish va nixoyat xonakilashtirish, oqibatda chorvachilikni vujudga kelishi haqidagi malumotlarga ega bo'lish mumkin.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roginskaya A., Zarautsay M.—L., 1950; Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Vidayushiyesya pamyatniki izobrazitelnogo iskusstva O'zbekistana, T., 1960; Formozov A. A., Ocherki po pervobitnomu iskusstvu, M., 1969.
2. Markaziy Osiyoning qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar va ularning aqamyati - Namangan Davlat universiteti
<https://uz.denemetr.com/docs/768/index-281097-1.html?page=13>
3. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/z/zarautsoy-rasmlari/>
4. <https://milliycha.uz/zarautsoy-rasmlari/>

